

**UMUMISTE'MOL LEKSIKANING RASMIY ISH USLUBIDA QO'LLANILISHI  
(TIJORAT HUJJATLARI TILI MISOLIDA)**

**Kamola Hatamova**

*O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi  
o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 2-bosqich tayanch doktaranti*

**Annotatsiya**

Maqola umumiste'mol leksikaning rasmiy ish uslubida xususan tijorat hujjatlari tili misolida qo'llanishi haqida yoritilgan. Unda bugungi kunda tijorat hujjatlari tilida iste'mol doirasi chegaralangan leksikaning amaliy qo'llanishi qator misollar bilan izohlab berilgan. Tijorat hujjatlari tilida iste'mol doirasi chegaralangan leksikaning matnda qo'llanishning to'g'ri texnikasi tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar**

Tijorat hujjatlari tili, neytral leksika, faol lug'at, leksik ixtisoslashuv.

Tijorat hujjatlari tilida umumist'mol leksikaning qo'llanishiga to'xtalishdan oldin umumiste'mol leksikaning o'ziga to'xtalish maqolani yanada tushunarliroq bo'lishini ta'minlaydi. O'zbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qo'llanmaydi. Ayrim so'z keng jamoatchilik tilida qo'llansa, ba'zilari esa ma'lum hududda yashovchi yoki ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. Shunga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika.

Buni yana umumiste'mol leksikasi va iste'mol doirasi chegaralangan leksika ham deyish mumkin.

Nargiza Erkaboyeva “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami” kitobida bunga shunday ta'rif beradi: Ummumxalq tilida keng qo'llanadigan va shu tilda so'zlashuvchilarining barchasi uchun tushunarli bo'lgan so'zlarga qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar deyiladi. Ular neytral leksika atamasi va faol lug'at atamasi deb ham yuritiladi. Masalan: qalam, non, don, bug'doy, suv, qor, bulut kabilar.

O'zbek tili lug'at tarkibining asosiy qismini ishlatilish doirasi chegaralanmagan ya'ni umumiste'mol leksika tashkil etadi. Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika har qanday til lug'at tarkibining asosi hisoblanadi.

O'zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qo'llanadigan so'zlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat'iy nazar barcha o'zbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga ko'ra ular umumiste'moldagi so'zlar deb ham yuritiladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli bo'ladi. Bu so'zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so'z turkumlariga oid bo'ladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ko'p qismini umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar tashkil etadi. Bunday so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibini asosini tashkil etadi. Tijorat hujjatlari tilida ham umumiste'moldagi so'zlar keng qo'llaniladi. Mantiqan olib qaraganda ham tijorat hujjatlari tili leksik jihatdan o'ta

ixtisoslashuvi tog‘ri bo‘lmaydi. Tijorat hujjatlari tili mazmunan xilma-xilligi sababli ham uning leksik ixtisoslashuvi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish oldi-sotdi jarayonlarida tomonlarga turli leksik qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Unga faqat mutaxassislargina emas millatning barcha qatlami birdek tushunishga oson bo‘lishi kerak. Shu sababdan ham tijorat hujjatlari tili keng ommaning idrok imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Shu jihatdan ham tijorat hujjatlari tilida umumiste’moldagi leksikaning salmog‘i yuqori bo‘lishi tabiiy zaruratdir. Ahamiyat qilinsa tijorat hujjatlari tili matnida umumiste’moldagi so‘zlarda o‘ziga xos xususiyati ularni so‘z turkumlari bo‘yicha tahlil etilganda ot, sifat, olmosh, fe’l faol qo’llanilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Tijorat hujjatlari tili matnida ot so‘z turkumining faolligi haqida alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Buni tijorat hujjatlarining har bir matnida ham ko‘rish mumkin.

Masalan:

“MOTIVATED GENERATION” MCHJ bundan buyon “Ijrochi” deb yuritiladi, ustav asosida harakat qiluvchi deriktor Sodiq Ahunov M.S. axborot-konsalting xizmatlari to‘g‘risidagi ushbu Ofertani e’lon qiladi.

Matndagi ijrochi, ustav, deriktor, axborot-konsalting, xizmat, oferta kabi so‘zlar ot so‘z turkumiga mansubdir.

Kvartirani oldi-sotdi shartnomasi.

Ushbu kvartirani oldi-sotdi shartnomasi Toshkent shahar, Sirg‘ali tumani, Yangi Sirg‘ali ko‘chasi, 21-uyda joylashgan Toshkent shahar Sirg‘ali tumani 1-sonli Davlat notarial idorasida tasdiqlandi.

Ushbu matnda esa kvartira, shartnoma, shahar, tuman, idora, uy, ko‘cha kabi so‘zlar ot so‘z turkumiga oid.

Tijorat hujjatlari tili matni g‘alz va jimmador so‘zlardan foydalanishdan yiroqdir. Asmiylik sifatini yo‘qotadi. Bu kabi so‘zlar tijorat hujjatlari tilining jiddiylik xususiyatiga salbiytas”sir ko‘rsatadi. Hujjatning asossan barcha uchun tushunarli bo‘lgan hamda emotsiyonalekspressivlik xususiyatini yo‘qotgan so‘zlardan foydalaniadi. Bu esa o‘z navbatida tijorat hujjatlari tilining aniq, lo‘nda tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi. Tijorat hujjatlari tili matnida sifat so‘z turkumi alohida ahamiyat kasb etadi. Shoabdurahmov Shning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida o‘zbek tili gramatikasida sifatlar ma’nosiga ko‘ra to‘qqizta asosiy guruhga ajratiladi.

Shu guruhlardan quyidagilari tijorat hujjatlari tili matnida deyarli qo’llanilmaydi:

1. Inson xarakteriga xos xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar:

Soda, mehribon, oqko‘ngil, rahmdil, mug‘ombir kabilalar.

2. Ison holatini ifodalovchi sifatlar:

Ma’yus, xushchaxchax, xursand, g‘amgin, xayolchan kabilalar.

3. Shakl ko‘rinish bildiruvchi sifatlar:

Novcha, uzun, pakana, oriq, semiz, baqaloq, do‘mboq kabilalar.

4. Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar:

Shirin, achchiq, sho‘r, nordon, bemaza kabilalar.

Tijorat hujjatlari tilida bunday sifatlarning qo’llanmasligining obe’ktiv sababi bor. Sifat so‘z turkumiga emotsiyonallik kuchli bunday xususiyat tijorat hujjatlari tilidagi neytralikka putur

yetqazadi. Shuningdek sifatlar insonning ayrim xususiyatlarini inson bilan bog'liq predmet voqealari hodislarning belgisini ifodalaydi. Shu sababdan ham tijorat hujjatlari tili matnida uslubiy jihatdan neytral bo'lgan: majburuy, jismoniy, ruhiy, aqliy, qonuniy, obe'ktiv, g'ayriqonuniy kabi sifatlar keng qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda tijorat hujjatlari tili umuiste'moldagi barcha fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni qabul qilavermaydi. Masalan:

hiringlamoq, irshaymoq, ming'illamoq, tirjaymoq, qah-qah otmoq, xo'mraymoq, alanglamoq, kulimsiramoq kabi. Bu kabi so'zalarda emotsional-ekspressivlik yuqori bo'lganligi uchun tijorat hujjatlari tili lингistikasiga xos emas. Shu bilan bir qatorda tijorat hujjatlari tili matnida fe'lning birinchi va ikkinchi shakli shaxs-son qo'shimichalari bilan yasalgan qismi ham qo'llanilmaydi. Bor, tur, kel, tort, yiqit, ol, o'tir, yur, suril, kabi.

Buning o'mniga uslubiy jihatdan rasmiy uslubga xoslangan shakli keng qo'llaniladi.

Masalan: imzo chekmoq, oldi-sotdi qilmoq, ayri boshlamoq, , qaytarmoq, javobgar bo'lmoq, belgilamoq, sharhnomalar tuzmoq, rasmiylashtirmoq, qaytarib olmoq, ta'kidlamoq, tasdiqlamoq, tegishli bo'lmoq, qayd etmoq, chora ko'rmoq, almashtirmoq, kabi

Shuningdek yordamchi so'z turkumlaridan va, hamda, bilan, ammo, lekin, biroq, yoki, yohud bog'lovchilari, faqat, hatto yuklamalari; haqiqatan, asosan modal so'zları keng qo'llaniladi.

Undov va ta'kid so'zlar ko'proq so'zlashuv uslubiga xos bo'lganligi uchun tijorat hujjatlari tilining qatiylik, rasmiylik prinsiplariga to'g'ri kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda tijorat hujjatlari tilida umumiste'moldagi so'zlarning faqat rasmiylik, neytrallik, xolislik prinsiplariga to'g'ri keladigalarigina olinadi. Negaki tijorat hujjatlari tili uslubiy jihatdan rasmiy uslubning ko'pgina xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Muhiddinova X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qtuvchi.
2. Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. -Москва, 1987.
3. Ko'chimov S.N.O'zbekiston Respublikasi qonunlarinig tili Toshkent, 1997
4. Ko'chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muommolari. Toshkent, 2004.

Manzil: O'zbekiston, Toshkent, Mirobod tumani, Shahrizabz tor ko'chasi 5A  
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.